

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TABDILI MASALALARI**Otanazarova Sayyora Otanazar qizi**

NamDU Filologiya fakulteti magistranti

E-mail: sayyoramapiraliyeva@gmail.uz**Tel:** [998941021809](tel:998941021809)**<https://doi.org/10.5281/zenodo.13132272>**

Annotatsiya. Ushbu maqolada ulug' shoir Alisher Navoiy asarlaridagi so'zlar stitistik usul vositasida tahlil qilinib, shoir asarlari tabdilidagi nuqson va kamchiliklar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tabdil, imlo, transkripsiya, transliteratsiya, asliyat, fonetika, ilmiy-tanqidiy matn, ommaviy tabdil.

Mustaqillik yillarida xalqimizning o'tmish madaniy merosini yuzaga chiqarish, buyuk iste'dod sohiblari qoldirgan ulkan ilmiy-ma'naviy, adabiy merosni xalq mulkiga aylantirish sohasida jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, oxirgi yillarda xalqimizning mumtoz ma'naviy merosi matnshunoslik va manbashunoslik sohasining diqqat markaziga chiqdi. Shu jihatdan, Alisher Navoiy asarlarini eski o'zbek yozuvidan joriy alifboga ko'chirish saviya va sifatini tubdan ko'tarish, matndagi iste'moldan chiqqan turkiy so'zlarni tushuntirish, chet so'zlar va diniy atamalarga izohlar berish, tabdil variantlarini yangicha tamoyil va usullarga tayanib amalga oshirish matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasining eng muhim masalalaridan hisoblanadi. Shunga ko'ra, ulug' shoir asarlari misolida asliyat va tabdil muammolari masalasini o'rganishga katta ehtiyoj bor.

O'zbek matnchiligida XV asr oxiri yoki XVI asr boshlarida kitobat qilingan adabiy manbalarni o'rganish, joriy imloga tabdil (transliteratsiya) qilish va ularni tabdil etish bilan bog'liq katta salmoqqa ega ilmiy hamda amaliy tajriba to'plangan. Xususan, Mir Alisher Navoiyning ulkan merosini tabdil qilish ustida olib borilgan amaliy harakatlar bir necha matnshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Istiqlol sharofati bilan mumtoz yozuvimizda bitilgan shoir asarlari nafaqat kirill alifbosida, balki lotin yozuvida ham o'z ifodasini topayotir. Biroq bu tabdillarda, o'z navbatida, shu imkoniyatlarga muvofiq, professional bilim va ko'nikma yetishmasligi namoyon bo'layotganligi ham sir emas. Navoiy asarlarini targ'ib etish XX asming 20-yillari oxirlaridan boshlangan bo'lsa, shoir asarlari matnini o'zbek xalqiga yetkazish yo'lidagi dastlabki tadqiqot ishlari, asosan, 1938-yildan boshlandi. Ungacha faqat 1928-yili tabdil etilgan "O'zbek adabiyoti

namunalari” to'plamidan boshqa ko'zga ko'rinarli biror-bir tadqiqot ishi mavjud emas edi¹. Ulug' shoir asarlarini tadqiq etish usullari, eng awalo, matnshunoslikning tadrijiy taraqqiyotini hisobga olib ikki yo'nalishda xizmat qilishi nazarda tutildi: 1) Navoiy asarlarining mukammal ilmiy-tanqidiy matnini tuzish va shu asosda to'liq sharhlar bilan ta'minlangan shoir asarlari ustida keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borish; 2) Navoiy asarlarining joriy yozuvga tabdilini amalga oshirish orqali keng kitobxonlar ehtiyojini qondirish. Biroq, davr taqozosi bilan dastlabki ishlar ilmiy-tanqidiy matnlar tayyorlashdan emas, balki tabdil ishlaridan boshlandi. Chunki ulug' mutafakkir ilgari surgan ilg'or g'oyalarni xalqqa yetkazish, ammo, eng muhimi, kommunistik mafkura sharoitida Navoiyni saqlab qolish, tuzum peshvolarining Navoiyga nisbatan g'arazli qarashlarini yo'qqa chiqarish muhim edi. Uyg'onish davri adabiyotining yirik namoyandasi bo'lgan Shekspir asarlari matnini hozirgi ingliz kitobxonlari to'laqonli tushuna olmagan singari hozirda Navoiy asarlari matnini ham maxsus tayyorgarlikka ega bo'lmagan oddiy kitobxonning o'qib anglashi ba'zi bir qiyinchiliklar tug'dirar edi. Bunga sabab, oradan besh asr vaqt o'tgan, arab yozuvidan voz kechilgan, Navoiy asarlari matnidagi so'z va iboralarni oddiy “sovet kishisi” tushunishi qiyin edi. Shu sababli, buyuk mutafakkir shoir asarlarini kitobxonga tushunarli uslubda yetkazishga ehtiyoj bor edi. Dastlab Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini keng nishonlash munosabati bilan “Xamsa”ning qisqartirilgan varianti tabdili, “Chor devon”, “Muhokamat ul-lug'atayn”, “Mahbub ul-qulub” asarlari matni tabdili chop etildi. Sharq asliyat matnlarini o'rganish usulidagi originallik, ayniqsa, Navoiy asarlari matni bo'yicha G'afur G'ulom olib borgan tadqiqot ishlarida yaqqol namoyon bo'ldi. Shoir erishgan bu yutuqlar nafaqat uning she'riy salohiyati bilan, balki o'z davrida hamnafas bo'lgan E.E.Bertel's, V.V. Bartold, A.K.Borovkov, S.E.Malov, A.A.Semyonov, S.L.Volin, N.Yu.Yakubovskiy, H.Orasli, Sh.Abilov, A.Mirzayev kabi rus, ozarbayjon, turkman, tatar, tojik olimlarining navoiyshunoslikka bag'ishlangan tadqiqot ishlaridan boxabar bo'lganligi bilan ham xarakterlidir. Zero u, M. Nikitskiy, Oybek, S.Ayniy, I.Sulton, V. Zohidov, M.Shayxzoda, V.Abdullayev, H.Zaripov, P.Shamsiyev, H.Sulaymonov, A.Qayumov, G'.Karimov, A.Hayitmetov singari navoiyshunos olimlar bilan ishladi. Sovet davrida shoir asarlarining kommunistik tuzum senzurasida yaratilgan ommaviy tabdillari g'oyaviy tahrir va mafkuraviy qisqartirish bilan nashr etilgan edi. Sho'ro mafkurasida diniy mazmundagi matnlarning berilishiga yo'l qo'ymas, Alloh yoki Muhammad nomi uchragan har bir satr matndan olib tashlanar edi. Darhaqiqat, rus matnshunosi D.S.Lixachev to'g'ri ta'kidlaganidek, “Matnning g'oyaviy tahrir”dan o'tishi asarning stilistik jihatlari bilan bog'liq bo'lishi yoki bo'lmasligi

¹.Shamsiyev P. Navoiy asarlari matnlarini o'rganishning ba'zi masalalari: filol. fan. dokt. ... diss. - T.: O'zR FA TAI, 1969.

mumkin. Tahrir ba'zan butun matn tarkibiga, ayrim hollarda uning alohida qismiga aloqador bo'ladi. Yozma yodgorlikka butunlay teskari ma'no yuklanishi, matnda u yoki bu xil "g'oyaviy tozalash" o'tkazilgan bo'lishi mumkin. To hatto asarga unda mutlaqo bo'lmagan g'oya qo'shilishi yoki matnda mavjud bo'lgan g'oya qisqartirilishi "hollari uchraydi"²[Lixachev 1962, 83 - 84]. Ommaviy tabdillarda asliyatga nisbatan katta farq va g'oyaviy qisqartirishlar mavjud ekanligi haqida mutaxassislar, hattoki, o'sha davrlardayoq e'tirof etishgan: "Ayni shu jihatdan, bu "O'n besh tomlik", umuman, ommaviy xarakterdagi tabdil bo'lib, unda, xususan, shoiming o'zbekcha devonlaridagi she'rlar juda qisqartirib berilgan ("G'aroyib us-sig'ar"dagi g'azallaming o'zidagina 290 tasi, "Navodir ush-shabob" dan esa 291 tasi tushirib qoldirilgan!) bo'lib, ayrim asarlardan ba'zi narsalargina "Nasoyim ul-muhabbat", "Tarixi anbiyo va hukamo" keltirilgan edi. Shu sababdan ham bu tabdil ilmiy talablarga javob berishdan ancha uzoq edi"³ [Hayitmetov 1976, 32]. Bularidan tashqari, filologiya fanlari doktori H.Sulaymonov, "Xazoyin ulmaoniy", "Devoni Foni" asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini tuzishga kirishgan va bu ishlar yuzasidan bir qancha muhim tadbirlarni bajargan. Afsuski, bu tabdillar mafkuraviy tazyiq ostida chop etilgan bo'lib, undagi hamd va na'tlardan tashqari, shoiming ayrim asarlari jiddiy qisqarishga uchragan edi. Aniqroq aytganda, bu ishlar Navoiy asarlariga bo'lgan bepisandlikdan boshqa narsa emas edi. Ulug' mutafakkimning diniy qarashlari mavjud bo'lgan tazkiralari ustida tadqiqot olib borish qo'llab-quvvatlanmadi. Shoirning "Xamsat ul-mutahayyirin", "Nasoyim ul-muhabbat" asarining esa, umuman ilmiy-tanqidiy matnlari yaratilmagan edi.

Bugun Navoiy asarlarini keng targ'ib etish, uning ilmiy asoslangan matnlarini tiklash va hozirgi o'zbek yozuvida chop etish tadqiqotchilardan o'zbek matnshunosligi rivojidadagi umumiy va xususiy jarayonlarni sinchiklab, puxta o'rganish va yozma yodgorliklari bo'yicha filologik tadqiqotlar olib borish sohasidagi nazariy umumlashmalarni bilish hamda adabiy manbahunoslik va matnshunoslikning shakllanishi jarayonini, uning umuman matn tarixi muammosini yaxshi bilishini taqozo etadi. Bu borada, ayniqsa, matn tarixini o'rganish sohasida o'tgan davr ichida bir qator ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelganligini ta'kidlash lozim. Shu jumladan, Navoiy asarlari fonetik xususiyatlari haqida ham tadqiqot ishlari olib borildi. Biroq bu sohada hozir ham ma'lum qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Chunki, asrlar davomida o'zbek tilida yaratilgan mumtoz yozma yodgorliklarning aksariyati bizgacha turli davrlarda har xil kotib va xattotlar tomonidan ko'chirilgan asliyat nusxalarda yetib kelgan. Natijada, bir yozuv yodgorlikning matn jihatdan ma'lum farqlarga ega bo'lgan turlicha variantlari vujudga kelgan. Bu manbalarning ko'pchiligi

² Lixachev D.S. Tekstologiya. - M.-L.: Izd. AN SSSR, 1962.-S.83-84.

³ Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. - T.: O'qituvchi, 1997.-B.53.

bo'yicha hozirgacha ilmiy-tanqidiy matnlar yaratilmagan, matniy xususiyatlar tavsif qilinmagan. Ba'zilarining esa ommaviy tabdili ham amalga oshirilmagan. Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomondan, nazarimizda, jiddiy muammolardan biri hozirgacha transliteratsiya qoidalarning yo'qligi, unifikatsiya masalasining hal etilmaganidir. Matn tarixi sohasida ish olib boruvchi har bir tadqiqotchi ilmiy-tanqidiy matni yaratilgan asaming eng mo'tabar va ishonarli nusxasini aniqlab olish kabi ishlar bilan birga uni qanday tabdil qilish, transkripsiya yoki transliteratsiya yo'lidan borish bo'yicha aniq tasavur va qarorga kelishi kerak. Hozirgi o'zbek yozuviga o'girilgan ko'plab tabdillar esa, ko'p holatlarda jiddiy e'tirozlarga sabab bo'lib kelmoqda. Umuman, Navoiy asarlari tabdilidagi nuqsonlar o'z vaqtida olimlar orasida katta bahsmunozaralarga sabab ham bo'lgan edi. "O'zbekiston adabiyoti san'ati" gazetasida 1983-yil bir necha oy davomida matnchilik va matnshunoslik masalalari bo'yicha qizg'in bahslar bo'lib o'tgan. Ularda o'zbek klassiklari asarlarining tabdili masalalariga bag'ishlangan foydali takliflar o'rtaga tashlangan. Chunonchi, A.Rustamov yozgan edi: "O'zbekiston qadimiy asliyat kitob va tarixiy-adabiy hujjatlarga eng boy respublika. Ulaming matnlarini aniqlab, tabdilga tayyorlash, ya'ni tekstologiya ilm ahlining zaruriy vazifalaridandir. Asliyatlaming aniq matnini tabdilga tayyorlash uchun nazariy ma'lumot va amaliy malaka kerak. Bizda bu sohaning nazariyasi, ya'ni matnshunoslik ham, amaliyoti, ya'ni matnchilik ham qoniqarli emas... "Sab'ai sayyor"ning "ilmiy-kritik" deb berilgan tekstning boshidan ming baytini tayanch asliyat bilan solishtirib chiqqanimizda qirqdan ortiq turli xatolar topildi". Bahslarda ko'p olimlar qatnashdi. Lekin ayrim masalalarda yagona xulosaga kelinmadi. Ushbu bahs-munozaralar natijasi sifatida gazeta tahririyati o'z xulosalarini e'lon qildi. Ularda shunday deyilgan: "Nuqsonlarning ikki sababi ma'lum bo'ldi: Birinchi sabab eski yozuvlaming tildagi tovushlami to'liq va amq aks ettirmasligi; o'zbek tilining mukammal tarixiy izohli va orfografik lug'atining yo'qligi. Ikkinchi sababi, matnga nisbatan beparvolik, mas'uliyatsizlik, mazmunga e'tibor bermaslik, fan yutuqlarini hisobga olmaslik; tekstologik ojizlik, til va uslubni, xususan, poetikani bilmaslik va bilishga harakat qilmaslik, eski yozuvlami yaxshi bilmaslik, grafik xususiyatlami fonetik xususiyat deb tushunish, bir til xususiyatini ikkinchi tilga mexanik ravishda ko'chirish". Shundan keyin mumtoz adabiyot namunalarini tabdil etishda biroz mas'uliyat paydo bo'lgandek ko'rindi. Ammo sal o'tmay, bahsda ko'tarilgan muammolar muammoligicha qolib ketdi. Bugungi kungacha transliteratsiya, transkripsiya, izohlami qay tartibda berish masalalari hal qilinmay kelmoqda. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini qabul qilganimizga ham 25 yildan oshganiga qaramay, Navoiy asarlarining fonetik xususiyatlarini o'zida aks ettirgan transliteratsiya yoki transkripsiya qoidalari ishlab chiqilmadi. Tabiiyki, matnshunos yoki muharrir matn ustida ishlashi mobaynida nihoyatda faol, hushyor, butun diqqat-e'tiborini bir yerga jamlagan bo'lishi kerak. U matnni qanday idrok etishligini nazorat qila olishi, muallif

mulohazasidagi o‘ziga xoslikni baholay bilishi kerak. Bu muharrirga o‘zi tutadigan yo‘l (strategiya)ni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, ayniqsa, tuzatish jarayonida. Tajribali muharrirlar tahrir ishining eng qiyin joyi matnni o‘zgartirishni amalga oshirish, deb hisoblaydilar. Chunki u matnda yot unsurdek bo‘lib qolmasligi kerak. Kiritmalar begonaligi seziimasligi, muallif matnining uzvlari bo‘lib qolishi kerak. Muharrirning har bir qaydi asliyat kamchiligining ta‘kidigina emas, balki aniq tavsiya vazifasini ham o‘tashi lozim. Bu muharrir qaydlari muallifga taqdim etilishidagina emas, balki kelgusida ishlami amalga oshirish dasturi sifatida ham muhimdir. Matnni faol idroklash, fikrlar aniqligi muharrir faoliyati va xatti-harakatidagi zaruriy jihatlar hisoblanadi. Ammo, mumtoz asarlar matni tabdilini tayyorlashda ham ahvol shu. Xususan, mumtoz asarlarning ommaviy tabdillari, akademik tabdillari imkon qadar ilmiytanqidiy matn asosida tayyorlansagina ishonchli matn hisoblanadi. Ilmiy-tanqidiy matn shunday har xillikning oldini olib, bir xil xulosaviy matn tarzida yaratilishi bilan muhimdir. Matnshunos olim V.Rahmonovning qayd etishicha, “Navoiy asarlarini tabdilga tayyorlovchilar turli-tuman matn nuqsonlariga yo‘l qo‘yadilar. Ulami yuz xil tasnif qilib, mingta misol keltirishimiz mumkin. Biroq bularning hammasiga bitta bosh sabab bor. Bu - daho mas‘ul kotibining goh-goh misra va bayt mazmunini tegishlicha to‘g‘ri idrok etolmasligidir. Masalan, “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidan olingan ushbu baytning qanday ko‘chirilganini tahlil etib ko‘raylik:

*Qaddi hajrinda g ‘amim sham ‘ini har devorg ‘a
Kim, tayabmen saru andomi bila bo‘lmish qaro [G‘S,53].*

Baytning tabdilidagi holatiga ko‘ra mazmuni: “Yor qaddi judoligida g‘amim shamini qaysi bir devorga tayasam, boshi va yuzi bilan qorayib ketdi”. Asliyatda esa “saru” so‘zi o‘mida “sarv” so‘zi bor edi. Eski yozuvda shu so‘zning shaklini ikki xil o‘qish mumkin, albatta. Navoiy asliyatini tiklaylik:

*Qaddi hajrinda g ‘amim sham ‘ini har devorg ‘a
Kim, tayabmen sarv andomi bila bo‘lmish qaro.*

Mazmuni: “Yor qaddi judoligida g‘amim shamini qaysi bir devorga tayasam, devor sarv shaklida qorayib ketadi”. Gap shundaki, bayt o‘zagida yor qaddining sham’ va sarvga o‘xshashligi haqidagi fikr bor. Savol tug‘iladi: nega biz “saru” so‘zidan shubhalanib, “sarv”ni taklif qildik? Buning ikki sababi bor: avvalo, vazn buzilgan. So‘ngra birinchi misradagi qadga sarv o‘xshatish keltirilgan edi. Buni poetika sohasidagi xato deb hisoblash joizdir”. Taassufki, bu holat matnshunoslik ahvolining g‘aribligini ko‘rsatib beradi va eng yomoni bunday xatoliklar tabdildan tabdilga ko‘chib kelayotganligida. Asrlar davomida o‘zbek tilida shunchalik ko‘p mumtoz asarlar yaratilganki, matn tarixining ma‘lum sohasi bo‘yicha bajariladigan tadqiqotda bu asarlarning hammasini qamrab olish qiyin. Buning uchun, eng awalo, matnshunoslikning tarixiytadrijiy

taraqqiyot jarayonlari va qonuniyatlarini izchil belgilash uchun tekshirilayotgan davr matnini o'zida aks ettira oladigan eng muhim ishonchli va zaruriy manbalami tanlab olishga to'g'ri keladi. Shu ma'noda matn transliteratsiyasida Alisher Navoiy asarlaridagi so'z va iboralar imloviy xususiyatlarining tutgan o'mi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish ana shu ishlaming mantiqiy davomi hamdir. Mumtoz asarlami joriy alifboga tabdil qilishdagi asosiy tamoyillardan biri tabdilda hozirgi davr adabiy tili me'yoriga asoslanilmay, balki an'anaviy matnshunosligimiz qonun-qoidalariga qat'iy rioya qilish zaruriyidir. Bu borada E.E.Bertels, A.N.Kononov, A. K.Borovkov, A.Rustamov, H.Sulaymonov, P.Shamsiyev, S.Ibrohimov, Sh.Eshonxo'jayev kabi yetuk matnshunoslaming boy tajribalariga tayanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shu nuqtai nazardan oldimizda shoir asarlaridagi so'z va iboralaming matn tabdilida tutgan o'mini to'g'ri baholash vazifasi turibdi. Bu borada, birinchi navbatda, XV asming ikkinchi yarmidagi eski o'zbek tilining holatiga asoslanish; ikkinchidan, Navoiy asarlari bo'yicha nafaqat matnshunoslik, balki tilshunoslik nuqtai nazaridan amalga oshirilgan tadqiqotlaming boy tajribalariga tayanish lozim. Alisher Navoiy qo'lyozma asarlari ma'lum tarixiy davrlar va jarayonlar bilan bogliq bo'lgan tarixiy hodisalar, ulaming tahlili, shuningdek, adabiyot sohasidagi ilmiy izlanishlarining mahsuli sifatida yuzaga kelgan. Navoiyning "Xazoyin ulmaoniy", "Xamsa", "Lison ut-tayr", "Majolis un-nafois", "Mahbub ul-qulub", "Tarixi muluki Ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Siroj ul-muslimin", "Nazm ul-javohir" va "Nasoyim ul-muhabbat" kabi asarlari o'zaro uzviy tizimga ega. Alisher Navoiy bu asarlarini o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida bitta umumiy nom bilan "Zubdat ut-tavorix" ("Tarixlar qaymog'i") deb nomlaydi. Ayni ma'noda Navoiy asarlarining birgina fonetik xususiyatlarini kuzatadigan bo'lsak, ulardagi fonetik taraqqiyotni anglay boshlaymiz.

Xullas, Navoiyga xos badiiy mahorat nasriy asarlardagi she'riy matnlarda qo'llanilgan mumtoz badiiy san'atlaming mohirona ishlatilishi misolida ham o'zining in'ikosini topgan. Chunki she'riyatga xos bo'lgan ohangdoshlik bevosita qofiya bilan belgilanadi. Aytishimiz mumkinki, misralarda so'zlaming ohangdosh bo'lib tizilib kelishi - qofiyani yuzaga keltiradi hamda she'rdagi musiqiylikni yaratish uchun xizmat qiladi. Demak, shoir qo'lyozma asarlari matnini adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish qanchalik zarur va ahamiyatli bo'lsa, uning matni tabdilining fonetik taraqqiyotini matnshunoslik nuqtai nazaridan o'rganib chiqish ham shunchalik muhimdir. Lekin bu sohada shu vaqtga qadar qilingan ishlar hali yetarli emas. Alisher Navoiy matnining sheva asoslari, uning tarkibiy qismi va hozirgi tilimizdagi ildizlari, shuningdek, Navoiy tilining hozirgi tilimiz bilan aloqasi hamda uning hozirgi o'zbek adabiy tili va yetakchi o'zbek shevalariga munosabati kabi bir qator muhim masalalar hanuzgacha qo'l urilmasdan qolib ketmoqda. Oldimizda turgan eng muhim muammolardan biri transliteratsiya qoidalarini

unifikatsiyalash va ularni Alisher Navoiy asarlarining keyingi tabdillariga joriy qilishdir.

REFERENCES

1. Lixachev D.S. Tekstologiya. - M.-L.: Izd. AN SSSR, 1962.-S.83-84.
2. Ravshanov A. Gʻafur Gʻulomning adabiyotshunoslik faoliyati // Oʻzbek tili va adabiyoti. - T., 1973, -№4. - B.28.
3. Reyser S.A. Osnovi tekstologii. Izd.2-e. L., Prosveshenie, 1978.-S.7.
4. Rustamov A. Matnchiligimizdagi nuqsonlar//OʻzAS, 1982-yil, 3-sentyabr, № 36 (2672).
5. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. - T.: Navoiy universiteti, 2019. -B.127.
6. Shamsiyev P. Navoiy asarlari matnlarini oʻrganishning baʼzi masalalari: filol. fan. dokt. ... diss. - T.: OʻzR FA TAI, 1969.
7. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. - T.: Oʻqituvchi, 1997.-B.53.
8. Shamsiyev P. Oʻzbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar. - T.: Fan, 1986. -B . 9-43.
9. Sharafiddinov O. Birinchi moʻjiza. - T.: Adabiyot va sanʼat, 1979. -B.207. ss. - T.: OʻzRFA, 1969.-B . 5.
10. Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. - T.: TDSHI, 2000. -172 b.
11. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. - T.: Oʻqituvchi, 1997. - B.52-53.
12. Hakimov M. Alisher Navoiyning toʻplovchilik faoliyati//Oʻzbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 1978. -№ 1. - B.31-37.
13. Hamidova M. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining ilmiy-tanqidiy matni va matniy tadqiqi: filol. fan. dokt.... diss. - T., 1994. - B.8.
14. Abdulxayrov M. “Xamsa”ning toʻliq tabdili. - T.: Yangi asr avlodi, 2021.-1508 b.